



MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLAR.

Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi

University of Business and Science talabasi

Tel: +998952240419

Gmail://mohlaroyteshaxojayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21436526>

Annotatsiya: "Milliy urf-odatlar va qadriyatlar" mavzusi o'zbek xalqining tarixiy va madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lib, bu an'analar asrlar davomida shakllanib kelgan. Ushbu ishda o'zbek xalqining turmush tarzida mustahkam o'rnashgan urf-odatlar — to'ylar, sunnat marosimlari, Navro'z, hayit bayramlari, mehmondo'stlik, katta-kichikka hurmat, qo'shnichilik kabi qadriyatlar keng yoritiladi. Shuningdek, milliy liboslar, milliy taomlar, xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari va boshqa ko'rinishdagi madaniy meroslar milliy o'zlikni anglashda qanday o'rin tutishi haqida so'z boradi. Mavzuda yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash, globalizatsiya jarayonida ularni asrab-avaylash va zamonaviy jamiyat bilan uyg'unlashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Urf-odatlarining ijtimoiy hayotdagi roli, ularning jamiyatda birdamlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Bu qadriyatlar O'zbekiston mustaqilligi yillarida qayta tiklan Navro'z, hayit bayramlari, mehmondo'stlik, katta-kichikka hurmat, qo'shnichilik kabi qadriyatlar keng yoritiladi. Shuningdek, milliy liboslar, milliy taomlar, xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari va boshqa ko'rinishdagi madaniy meroslar milliy o'zlikni anglashda qanday o'rin tutishi haqida

Kalit so'zlar: milliy urf-odat, qadriyat, an'ana, yoshlar, tarbiya, ma'daniyat, milliylik, madaniy meros, milliy o'zlik, an'anaviy hayot tarzi, milliy libos va taomlar, yoshlar tarbiyasi, o'zbekona tarbiya, vatanparvarlik.

Kirish qismi: Har bir davlatning o'ziga xos milliy urf-odatlari o'ziga xos an'analari bor. Insoniyat jamiyati qadim zamondan beri o'zining madaniy merosi,



qadriyatlari va urf-odatlarini bilan ajralib turgan. Har bir xalq o'z tarixiy taraqqiyoti davomida o'ziga xos ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Xususan, o'zbek xalqining urf-odatlarini va qadriyatlari ming yillik tarixga ega bo'lib, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Shu bois, ularni o'rganish, asrab-avaylash va bizdan keyingi avlodlarmizga ham yetkazish dolzarb masalalar hisoblanadi.

Milliy urf-odatlar:

Milliy urf-odatlar - deganda xalqimizning turmush tarziga singib ketgan marosimlar, udumlar, ijtimoiy va madaniy me'yorlar tushuniladi. Bunga misol, mehmondo'stlik, to'y-tomosholar, Navro'z, Ramazon, Qurbon hayitlari kabi bayramlar, maraka va janob odoblari xalqimizning hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, urf-odatlarimiz nafaqat estetik yoki tashqi ko'rish jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ular orqali insonlar orasidagi rishtalar mustahkamlanib barqarorlanadi.

Milliy qadriyatlar:

Milliy qadriyatlarimiz esa insonlar ongida shakllangan axloqiy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy me'yorlardir. O'zbek xalqining qadriyatlariga hurmat, sabr, bardavomlik, kattalarni e'zozlash, bolalarni mehr bilan tarbiyalash va h.k kabi fazilatlar kiradi. Bu fazilatlar nafaqat oilada, maktab, mahalla va jamiyat hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Yoshlarga o'zlikni anglash, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini singdirish aynan shu qadriyatlar amalga oshiriladi.

An'analar:

An'analar jamiyatning turli sohalarida namoyon bo'ladi - to'y marosimlari, bolani beshikka solish, sunnat to'yi, Navro'z bayrami, ota-onani e'zozlash, o'zaro mehr-oqibat, mehmondo'stlik kabi udumlar xalqimizning o'ziga xos an'anaviy hayot tarzini belgilab beradi. Bu marosimlarimiz va odatlarimiz nafaqat tashqi rasm-rusumlar, balki chuqur ma'naviy asosga ega hisoblanadi. Masalan, to'y marosimi faqat ikki yoshning oila qurushi emas, balki ikki oila, ikki urug', ba'zan butun mahalla ahlining birlashuvi, birdamligining namunasidir.



An'analar orqali yosh avlodga sabr-toqat, hurmat, vatanparvarlik, kamtarlik kabi fazilatlar singdiriladi. O'zbek xalqining an'alarini asrab-avalab, ularni zamon bilan uyg'unlashtira olgani uchun ham tarixiy ildizlar bugungi kunda ham ahamiyatini yoqoymagan. Hozirgi zamon texnologiyalari va global madaniy ta'sirlari sharoitida bu an'analarni saqlab qolish, ularni yoshlar ongiga zamonaviy shakllarda yetkazib berish ham juda katta muhim vazifadir.

Afsuski hozirgi yoshlar orasida an'analarni eskilik sarqiti deb tushunish holatlari ucrab turibdi. Bu holatlarni oldini olish uchun oila, maktab, jamiyat va ommaviy axborot vositalari birgalikda ishlashi lozim. Tarixiy ildizlardan uzilgan xalq - kelajaksiz qoladi. Shu sababli ham an'analarni saqlab qolish emas, balki tarzimizni ajralmas bir qismiga aylantirishimiz lozim.

Milliylik va madaniyat:

O'zbek milliy madaniyatida mehmonga izzak-ikrom ko'rsatish, kattalarga hurmat kichiklarga izzatda, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat kabi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Bu qadriyatlar insonlar orasidagi mehr-oqibatni, birdamlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Ayni paytda milliy liboslar, xalq og'zaki ijodi, amaliy san'at turlari ham milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.

Yoshlar milliylikni o'z hayotida qo'llasa, bu ularning nafaqat madaniy jihatdan boy, balki mustahkam e'tiqodli, vatanparvar, o'z fikriga ega shaxs bo'lib yetishishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya tizimida milliy san'atkorlar va jamiyat ziyolilarining roli beqiyos hisoblanadi.

Xulosa:

Milliy urf-odatlar va qadriyatlar har bir xalqning o'ziga xosligini belgilab beruvchi asosiy omillardandir. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlari, marosimlari, axloqiy-me'yoriy qadriyatlari uning boy madaniy merosini tashkil qiladi. Bu qadriyatlar nafaqat o'zbek xalqining ijtimoiy hayot tarzini aks ettiradi, balki uning ichki dunyosi, dunyoqarashi va



hayotga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Milliy urf-odatlar – bu oddiygina marosimlar yoki rasm-rusumlar emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, jamoaviy ongini shakllantiruvchi ma'naviy boylikdir. Ular orqali jamiyatda mehr-oqibat, o'zaro hurmat, hamjihatlik, saxiylik, sabr-toqat kabi fazilatlar mustahkamlanadi. Ayniqsa, oila va mahalla tizimida urf-odatlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, qo'shnichilik kabi qadriyatlar jamiyatni barqaror, mustahkam va insoniy munosabatlarga boy qiladi. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida bu qadriyatlarning ayrimlari zaiflashayotgan bo'lsa-da, ular hali ham xalqning ruhiy tayanchi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, o'z tarixiy ildizlariga hurmat ruhida voyaga yetkazish borasida urf-odatlar muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'raqulov A. O'zbek xalqining urf-odatlari va marosimlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. G'ofurov M. Milliy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Hasanov B., Qodirova G. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. To'laganov Sh. O'zbek xalqining ma'naviy merosi. – Toshkent: Sharq, 2012.
6. Xaydarov A. An'analar va zamonaviylik: qadriyatlar transformatsiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ma'naviyatga oid nutqlari va ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
8. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". – Toshkent: Milliy ensiklopediya nashriyoti, turli jildlar.
9. Saidov A. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
10. UNESCO. Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. – Paris: UNESCO



Publishing, 2020.